



## O'ZBEK TILIDA SO'ZLARNING O'ZARO OMONIMLIGI. QO'SHIMCHALARDA SHAKLDOSHLIK VA ULARNING TURLARI

Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi<sup>1</sup>

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedogogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabalari,

Zaripova Muxlisa Xamid qizi<sup>2</sup>

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedogogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti 1-bosqich talabalari.

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-89>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> February 2023

Online: 16<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

Omonim, omograf, omoforma, affiks omonim, haqiqiy omonim, omofonlar, qo'shimcha, shakldosh.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada so'zlarning o'zaro omonimligi, o'ziga xos xususiyati yoritib berildi. Affiks omonimlar hamda so'zlarning o'zaro omonimligi dolzarbligi, ularning vazifasi hamda o'zbek tilida tutgan o'rni haqida so'z yuritildi.*

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra 4 guruhga ajratiladi. Ular **shakldosh so'zlar**, **ma'nodosh so'zlar**, **zid ma'noli so'zlar va bitta tovush bilan farqlanuvchi**, ya'ni **paronim so'zlarga** bo'linadi. Shakldosh so'z deb talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan so'zlarga aytiladi. Shakldosh so'zlar boshqa nom bilan ham nomlanadi, ya'ni omonim so'z deyiladi. Omonim so'zining ma'nosi *grek tilidan* olingan bo'lib, *homog* – “bir xil”, *onyma* – “nom”, *nomi bir xil* ma'nosini anglatadi. Omonim so'zlarning ko'p ma'noli so'zlar bilan o'xshash tomoni ham bor. Ularni bir-biridan farqlash lozim. Ko'p ma'noli so'zlar bitta so'zni o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llashdan hosil qilinadi. Shakldosh so'zlar esa shakli o'xshash bo'lgan ikki va undan ortiq so'zlardir. Masalan; *tut, uch, yut, oq,et* kabi so'zlar shakldosh so'zlar hisoblanadi. Ko'p ma'noli so'zlarning o'rtasida bog'liqlik va umumiylik bo'ladi, lekin shakldosh so'zlar o'rtasida bu xususiyat mavjud emas. So'zlarning omonim yoki ko'p ma'noli so'z ekanligini aniqlash uchun birinchi navbatda ularning orasidagi ma'noviy bo'liqlik va umumiylik borligi yoki yo'qligiga e'tibor beriladi. Omonim qo'shimchalar ham shakldosh so'zlar kabi shakli bir xil, ammo boshqa ma'no beruvchi so'z yasay oladi. Masalan, shakldosh qo'shimchalar **ot, sifat, fe'l ravish va yuklamalar** yasashda ishtirok etadi. Ayrim shakldosh so'zlar bir paytlar ko'p ma'noli so'z bo'lib, keyinchalik ularning ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik uzilib, ma'nolari bir-biridan uzoqlashib hozirda omonim so'zlarga aylangan. Masalan; *gap* so'zi “og'zaki nutq birligi va gap”, ziyofat ma'nolarida ularni gaplashish tushunchasi birlashtirib turgan. Oldingi gap ziyofatlarda faqat suhbatlashilgan bo'lsa, hozirgi kunda dasturxondagi hashamdorlik birinchi o'ringa chiqib olgan. Dam so'zi ham “hordiq”, “nafas, dam olish”, “bosqon” ma'nolarida ularni nafas tushunchasi umumshtirib turgan. Shakldoshlik bir va bir necha turkumlar doirasida omonimlik qilishi mumkin. Omonim so'zlar bitta so'z turkum doirasida uchrasa, ularga grammatik qo'shimchalar qo'shilsa ham, ular orasidagi omonimlik munosabati o'zgarmaydi.



O'zbek tilining omonimlar xususiyati shundan iboratki, bitta so'zni nutqda har xil ma'noda qo'llanadi va u ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik hamda umumiylik uzilib, omonimlarga aylangan. O'zbek tilida omonimlar bo'lmasa, nutq madaniyatining belgisi bo'lmish aniqligi va nutqning to'g'riligi yo'qoladi. O'zbek tili lug'at boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Omonim so'zlarning o'ziga xos ma'nosi kontekstda ochiladi, shu sababli kontekst so'zlarni to'g'ri tushunishni ta'minlashi zarur, aks holda u nutqda noaniqlik, noto'g'rilikka olib kelishi mumkin. Omonimlar bor o'lib, ular o'z o'rnida to'g'ri qo'llansa, aksincha, nutqimiz to'g'ri va aniq bo'ladi hamda o'zbek tili lug'at boyligi oshadi. Har qanday omonim so'zlarning mavjudligi tilning leksik, ya'ni lug'aviy boyligini hosil qiladi va bir-bir bilan o'zaro muloqotda bo'lib, turli vazifalarni bajaradi. Biz o'z ona tilimizning tabiati hamda xususiyatlarini inobatga olgan holda omonimlardan foydalanamiz. Chunki omonimlar gapda qaysi ma'noda hamda grammatik shakllarning bir xilligi va ularning qaysi so'z turkumida kelganligini aniqlash ancha mushkul hisoblanadi, shuning uchun o'zidan oldin va keyin kelgan so'z orqali hamda butun bir gap orqali grammatik omonimlarni to'g'ri aniqlash mumkin. Affiks omonimlar shakli bir xil, ma'nosi va vazifasiga ko'ra bog'lanmaydigan qo'shimchalardir. Affiks omonimlar vazifasiga ko'ra quyidagicha uchraydi, ya'ni so'z yasovchilar orasida, shakl yasovchilar, so'z o'zgartiruvchilar, so'z yasovchi va shakl yasovchilar orasida hamda so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar doirasida omonimlik qiladi. Omonim qo'shimchalar ham omonim so'zlar kabi o'ziga xos xususiyatga xos. Ular gapda shakli bir xil, ammo har xil vazifada so'zlarni o'zaro bir-biriga bog'laydi. Ularni o'z o'rnida qo'llanilmasa, so'zlarning ma'nosiga va gapning o'zaro bog'lanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tilimizda omonim qo'shimchalarning mavjudligi har tomonlama foyda beradi. Chunki so'z yasovchi qo'shimchalar bitta asosdan yangi so'z yasab ona tilimizning so'z, ya'ni lug'at boyligini oshiradi. Shakl yasovchi qo'shimchalar esa so'z yasamaydi, balki u so'zning shaklini o'zgartirib, turli grammatik ma'nolarni ifodalaydi va har xil so'z turkumlarida turlicha vazifalarni bajaradi. Bu esa nutqimizning, o'zbek tilimizning rivjolanishi uchun foyda beradi. Ahmad do'kondan kerakli mahsulotlarni olgach, akasiga chekni kassaga **to'latdi**. Qizlar tog'dan chelakni **to'latib** suv keltirishdi. Ushbu gapdagi **-t** qo'shimchasi shakldosh hisoblanadi va 1-gapda fe'l ma'nosida kelgan, 2-gapda esa sifat bo'lib, ya'ni chelakni to'ldirib sifat darajasi o'rnida kelib sifat yasayapti.

"Omonim so'zlar dunyodagi barcha tillarga xosdir. Masalan; **O'zbek tilida:** *ot* – "hayvon", "ism", "so'z turkumi" va "buyruq fe'li"; **rus tilida:** *klyuch* – "kalit" va "buloq"; **ingliz tilida:** *well* – "quduq", "yaxshi"; **nemis tilida:** *Schloss* – "qasr" va "qulf" va boshqalar; **fransuz tilida:** *Tour* – "minora, navbat, sayohat va boshqalar". Hozirgi zamon tilshunosligi omonim so'zlarning yozilishi va talaffuz qilinishi jihatdan ularni bir qancha turlarga ajratadi. Yozilishi va talaffuzi bir-biriga mos keladigan so'zlar **mutlaq omonimlar** deyiladi. Masalan; **tor** – *musiqqa asbobi* va *keng so'zining antonimi* ma'nosida; **rus tilida shashka** so'zi *qilich* va *o'ynaladigan predmet* ma'nosida; **ingliz tilida** *still* – *sokin* va *hozirgacha* ma'nolarida, **nemis tilida** *acht* so'zi *sakkiz* va *diqqat* ma'nolarida keladi. Yozilishi har xil, lekin talaffuzi bir xil omonim so'zlar **omofon** deb yuritiladi. Masalan; **O'zbek tilidagi** *to'n* va *ton (ovoz)*, **rus tilida** *разредумъ* – *разрядумъ*, **ingliz tilida** *night* – *knight*, **nemis tilida** *viel* – *fiel* (birinchisi ko'p ma'nosida, ikkinchisi *yiqildi* ma'nosida), **fransuz tilida** *mer* – *mer*; *maire* – *ona*, *dengiz* va *mer (hokim)* ma'nolarida qo'llaniladi. Ba'zi so'zlar bir xil yozilib, har xil o'qiladi. Tilshunoslikda



bunday soʻzlar **omograflar** deb yuritiladi. Masalan; **oʻzbek tilidagi tok** soʻzi ikki xil talaffuz qilinadi; *uzum* va *elektr quvvati* maʼnosida, **rus tilidagi zamok** soʻzi ikki xil oʻqiladi: *qasr* maʼnosida qoʻllanganda urgʻu birinchi boʻgʻinga, *qulf* maʼnosida qoʻllanganda esa ikkinchi boʻgʻinga tushadi. **Ingliz tilida** *wind* soʻzi *shamol* va *buramoq* maʼnolarida qoʻllanib, har xil talaffuz qilinadi”.<sup>[1]</sup>

Omonimlik faqat soʻzlarga emas, balki qoʻshimchalarga ham xos xususiyat sanaladi. Ayrim qoʻshimchalarda ifodalanishiga koʻra bir-biriga shaklan oʻxshashligi bor boʻlsa ham, mazmun-mohiyati bilaan farqlanadi. Omonim qoʻshimchalar deb shakli bir xil, vazifasi har xil boʻlgan qoʻshimchalarga aytiladi. Masalan; **-siz** qoʻshimchasi ravish va sifat yasaydi: yuzsiz(sifat) – soʻzsiz (ravish). Shu kabi qoʻshimchalar oʻzbek tilida koʻplab uchraydi. Masalan; -(i)sh, -ma, -li, -dor, -chi, -ch, -ar, -in, -ik, -qin, -chaq, -(a)y, -siz, -chak kabi qoʻshimchalar shakldosh hisoblanadi. Omonim qoʻshimchalar quyidagi koʻrinishlarda uchraydi: 1) Soʻz yasovchi qoʻshimchalar doirasida, yaʼni soʻz yasovchi qoʻshimcha soʻz yasovchi qoʻshimcha bilan omonimlik qiladi. Masalan; tep**ki**(ot) – kech**ki**(sifat), yugur**ik**(sifat) – koʻr**ik**(ot) – bir**ik**(feʼl), doʻst**lik**(ot), toshkent**lik**(sifat) kabi. 2) Soʻz yasovchi qoʻshimcha shakl yasovchi qoʻshimcha bilan shakldoshlik hosil qiladi. Misol uchun: yigit**cha**(otlardagi kichraytirish shakli) – erkak**cha**(ravish yasovchi qoʻshimcha), Sevarax**on**(hurmat maʼnosi) – kitob**xon**(ot yasovchi), yuz**lab**(chama son) – ming**lab**(ravish yasovchi) kabi. 3) Har qanday holatda omonimlik qiladi: ruchka**m**(egalik shakli) – yozdi**m**(shaxs-son shakli), opang(egalik shakli) – kelding(shaxs-son shakli), koʻk**ish**(sifatning ozaytirma darajasi) – yoz**ish**(harakat nomi) kabi omonimlik hosil qiladi.

“Omonimlar quyidagicha hosil boʻladi: 1. Tarixda boshqa-boshqa hisoblangan soʻzlarning hozirgi alifboda bir xil yozilishi natijasida: uch (3), uch (harakat); 2. Boshqa tillardan oʻtgan soʻzlarning oʻzbek tilidagi soʻzlar bilan bir shakl hosil qilish natijasida: atlas – atlas, etik – etik, tok – tok; 3. Koʻp maʼnoli soʻz maʼnolari oʻrtasidagi bogʻlanishning yoʻqolishi natijasida: dam(hordiq), dam(bosqon), dam(nafas); gap(til birligi), gap(yigʻin). Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qoʻshilganda ham omonimligini saqlab qoladi: Biz yoqqan *oʻtlarimizni* oʻchirdik. Biz ekkani *oʻtlarimizni* koʻrdik. Koʻp maʼnoli soʻzlar omonimlardan quyidagicha farqlanadi: 1) Koʻp maʼnoli soʻzlar bir soʻzning bir necha koʻchma maʼnoda kelishidir. Omonim esa bir xil shaklga ega boʻlgan birdan ortiq (bir necha)soʻzdir. Masalan: oʻt (olov), oʻt (oʻsimlik), oʻt (harakat), oʻt (inson aʼzosi) kabi. 2) Koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼnolari oʻrtasida bogʻlanish seziladi. Omonim soʻzlarning maʼnolari oʻrtasida yaqinlik sezilmaydi”.<sup>[2]</sup>

Oʻzbek tilida omonimlar paydo boʻlishida turlicha sabablari mavjud. Ularda oldin har xil talaffuz qilinib, bir xil eshitilgan soʻzlar talaffuzi tarixiy jarayonlarida tovush oʻzgarishi natijasida bir-biriga mos kelishi; **oʻt – harakat feʼli** va **oʻt – oʻsimlik**, **oʻt – olov** maʼnolarida nutqda oʻz oʻrnida qoʻllanadi. Agarda bunday omonimlar boʻlmaganida edi, oʻzbek tilimizning lugʻat boyligi keskin kam boʻlard. Bor boʻlganda esa soʻz lugʻat boyligi yanada oshadi, chunki oʻzbek tilining lugʻat boyligi qancha koʻp boʻlsa, soʻzlarni har xil maʼnolarda qoʻllay olish mumkin. Masalan: ot soʻzini yolgʻiz holda qoʻllasa, uning nimaligi tushunarsiz boʻlib qoladi yoki uning har xil maʼnosini tushunadi. Uning qaysi maʼnodaligini tushunish uchun qayerda qanday maʼnoda qoʻllanish usulini bilishi kerak. Chunki u ona tili darsligida aytilsa, soʻz turkumi maʼnosida, biologiya fanida esa jonivor maʼnosida qoʻllanadi.



“ Omonimlar quyidagi turlarga bo‘linadi: a) **Haqiqiy omnimlar:** ot( nom) , ot(hayvon), ot( biror narsani uloqtirmoq); b) **aytilishi bir xil ,lekin ma’nolari va yozilishi har xil bo‘lgan omofonlar:** qurt ( hasharot) , qurt( sut va qatiqdan qilingan ozuqa); v) **omograflar, ya’ni yozilishi bir xil, lekin talaffuzi va ma’nolari har xil bo‘lgan so‘zlar:** son(raqam) , son( inson jismidagi a’zo); g) **omofoma yoki leksik-grammatik omonimlar, ya’ni grammatik shakli to‘g‘ri keladigan, biroq ma’nolari farqlanuvchi so‘zlar:** qarg’a( qushning turi) , qarg’a( qarg’amoq fe’lining buyruq shakli); o’t ( o’simlik turi), o’t(olov) , o’t(o’tmoq harakat fe’li). Ba’zan bir xil yoziluvchi, biroq talaffuzida urg’uning o’rni bilan farqlanuvchi qarg’a(qush) – qarg’a(qarg’amoq fe’lining buyruq shakli) omofomalar bir yo’la omograflar bo’la oladi. Omonimlarning kelib chiqishini so’zlarning ko’p ma’noli xususiyatlarining kamayishi bilan izohlash mumkin. Bosmoq fe’lining polisemantik, ya’ni ko’p ma’noli xususiyati kuchsizdir. Shu sababli bu fe’ning buyruq shakli “bosma”, boshqa shu o’zakdan hosil bo’lgan “bosma”(qog’oz) oti bilan omonim bo’lib qolgan. Ma’no jihatdan farqlanuvchi, biroq aytilishi va yozilishi bir xil bo’lgan so’zlar **to’liq bo’lmagan omonimlar** deyiladi. Agar so’zlarning faqat yozilishi yoki talaffuzi bir xil bo’lsa, ular **to’liq bo’lmagan omonimlar** deb ataladi. Omonimlarni farqlashda ularning tarixiy kelib chiqishini ham hisobga olish zarur. Masalan; **tug’ilmoq** (chaqaloq tug’ildi) va **tug’ilmoq**( fikr tug’ildi, hosil bo’ldi) kabi. Har ikkisi bir asosdan kelib chiqqan. Omonimlarning kelib chiqishida tildagi tovush o’zgarishlari, yozuv qoidalari va semantik siljishlar muhim manba bo’ladi. Omonimlarning ma’nolari nutq situatsiyasida, kontekstda aniqlanadi”.<sup>iii</sup>[3]

Omonimlar, albatta, o’zbek tiliga o’zgacha mazmun bag’ishlaydi, chunki ular shakli bir xil va ma’nosi har xilligi bilan ma’nosiga qarab nutqda tog’ri qo’llanadi. Nutq so’zlovchi bitta omonim so’zning ma’nosini anglab o’z o’rnida qo’llamasa, nutq mazmuni o’zgarib ketadi. Albatta bu xususiyat qo’shimchalarga ham xos xususiyatdir. Ularda ham qo’shimchalar o’z o’rnida qo’llanmasa, uslubiy xatolik yuz beradi va bu kelajak yoshlarning imloviy savodxonligi hamda so’zlagan so’zi, gapining ma’nosiga katta ta’sir qiladi. Omonimlik faqat o’zbek tiliga xos xususiyat emas, balki boshqa chet tillariga ham xosdir.

## References:

1. M.T.Irisqulov. “Tilshunoslikka kirish”, Toshkent “Yangi asr avlodi” 2009. 110-112b.
2. Xolmonova.Z.T. “Tilshunoslikka kirish”, Toshkent 2007. 90-91b.
3. A.A.Abduazizov. “Tilshunoslik nazariyasiga kirish”, Toshkent 2010. 87-89b.